



Тошкент Фармацевтика  
Институту



"Учинчи Ренессансда  
Ибн Сино Издошлари"



Самарқанд Давлат  
Тиббиёт Институту

# "УЧИНЧИ РЕНЕССАНСДА ИБН СИНО ИЗДОШЛАРИ"

мавзусидаги талабалар учун  
Республика илмий амалий масофавий  
конференцияси тўплами.

2021



**САМАРҚАНД ДАВЛАТ ТИББИЁТ ИНСТИТУТИ ҲАМДА ТОШКЕНТ  
ФАРМАЦЕВТИКА ИНСТИТУТИ ҲАМКОРЛИГИДА ЎТКАЗИЛГАН  
«УЧИНЧИ РЕНЕССАНСДА ИБН СИНО ИЗДОШЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ  
ТАЛАБАЛАР УЧУН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ МАСОФАВИЙ  
КОНФЕРЕНЦИЯСИ ТЕЗИСЛАРИ 2-СОН ТЎПЛАМИ.**

---

25 НОЯБРЬ 2021 ЙИЛ



## **ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТА**

**Тошкент фармацевтика институти Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори –**

*Нормахаматов Нодирали Сахобаталиевич к.ф.д*

**Самарқанд Давлат Тиббиёт Институти Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори –**

*Шухрат Худайбердиевич Зиядуллаев т.ф.д профессор*

**Тошкент Фармацевтика институти Иқтидорли талабалар илмий тадқиқот фаолиятини ташкил этиш бўлими бошлиғи -**

*Шерматова Ирода Бахтиёровна*

**Самарқанд Давлат Тиббиёт институти Иқтидорли талабалар илмий тадқиқот фаолиятини ташкил этиш бўлими бошлиғи -**

*Пайзуллаева Умида Фурқатовна*

**Тошкент Фармацевтика институти Саноат фармацияси факультети 3-босқич талабаси –**

*Алланазарова Моҳира Бахтиёр қизи*

**Самарқанд Давлат Тиббиёт Институти Фармация факультети 3-босқич талабаси –**

*Акбаров Аслиддин Тохир ўғли.*

## **ТАХРИР ҲАЙЪАТИ**

*Холмуродова Дилафруз Қувватовна т.ф.д (ДСс)*

*Юлдашев Соатбой Жиянбоевич т.ф.н доцент*

*Халиков Қаҳҳор Мирзаевич т.ф.н доцент*

*Кодиров Низомиддин Даминович (PhD)*

*Шаринов Аvez Туймуродович к.ф.н. доцент.*

*Султонова Раъно Хакимовна f.f.f.d (PhD)*

*Олимов Хайрулло Каюмович ф.ф.н. доцент.*

*Фармонова Нодира Тахировна ф.ф.н. доцент*



## ТАБРИК СЎЗ

Хурматли конференция иштирокчилари!

Мен бугун Самарқанд давлат тиббиёт институтида ўтказилаётган “Учинчи ренессансда Ибн Сино издошлари” мавзусидаги республика илмий-амалий масофавий конференцияси билан барча қатнашчиларни қутлайман.

Конференцияни бу номда номланиши бежиз эмас. Мухтарам Президентимиз Ш. М. Мирзиёев ўз нутқларида учинчир ренессанс сўзига тўхталиб ўтгандилар “Биз кенг кўламли демократик ўзгаришлар, жумладан, таълим ислохотлари орқали Ўзбекистонда янги уйғониш даври, яъни Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишни ўзимизга асосий мақсад қилиб белгиладик. Бу ҳақда гапирар эканмиз, аввало, учинчи Ренессанснинг мазмун-моҳиятини ҳар биримиз, бутун жамиятимиз чуқур англаб олиши керак”.

Самарқанд Давлат Тиббиёт Институтида олиб борилаётган барча ишлар авваламбор бугунги кунда мухтарам Президентимизнинг соғлиқни сақлаш, фармацевтика соҳаларини ривожлантириш учун олиб бораётган ислохотларининг бир наъмунаси ҳисобланади. Самарқанд давлат тиббиёт институти ва Тошкент фармацевтика институти билан ҳамкорликда ташкил этилган бугунги конференция қатнашчиларига ва ташкилотчиларига ўз миннатдорчилигимни билдираман ва келгуси илмий фаолиятларингизга муваффақиятлар тилайман.

**Самарқанд давлат тиббиёт институти ректори**      **Ж. А. Ризаев** *т.ф.д профессор*

**Koronavirus infeksiyasi (Covid-19) dan keyin kelib chiqqan Tizimli vaskulitli bemorlarning klinik xususiyatlari va laborator tahlil natijalarini o'rganish.**

Normuradov A.D Jurayeva E.R Agzamova G.S  
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.

**Tadqiqot maqsadi:** Koronavirus infeksiyasi (Covid-19) dan keyin kelib chiqqan Tizimli vaskulitli bemorlarning klinik xususiyatlari va laborator tahlil natijalarini o'rganish.

**Materiallar va usullar.** Tadqiqot manbai sifatida Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasining Revmatologiya va Kardiorevmatologiya bo'limlarida davolangan 40 nafar (asosiy guruh- 20 nafar, nazorat guruhi - 20 nafar) Tizimli vaskuliti bor bemorlar, tanlandi. Barcha bemorlarda klinik xususiyatlar va laborator tahlil natijalari o'rganib chiqildi.

**Tadqiqot natijalari.** Asosiy guruh bemorlarning 60 foizida Gemorragik vaskulit kasalligi aniqlandi: bemorlarda klinikada febril temperatura (39-40 °C), 8-10 mmli yirik diskoid toshmalar paypaslanuvchi Shenleyn Genox purpurasining uzoq muddat saqlanishi, bu toshmalarining butun tana bo'ylab tarqalishi, toshmalar toshishining 5-6 to'lqinini, bo'g'im sindromining asosan yirik bo'g'implarda poliartrit mialgiya simmetrik og'riqdan tashqari yaqqol deformatsiyalar bilan kechishi davomiyligi (2 oygacha) bo'lishi; abdominal sindrom esa kuchli dispeptik shikoyatlardan tashqari oshqozon ichakdan kuchli qon ketish ichaklar perforatsiyasi hamda yiringli peritonit bilan asoratlanishi; Buyraklarda nefrotik sindrom arterial gipertenziya persistirlovchi gematuriya va proteinuriya natijasida surunkali buyrak yetishmovchiligi kuzatildi; Nerv tizimi tomondan esa subdural gematomalar hamda kam holda miya infarkti paydo bo'ldi; Laborator tekshiruvda immunologiyada asosan SARS COV-2 Ig M (-), Ig G(+) antistreptolizin O titri 780,8 (normada 200 ul/ml), S reaktiv oqsil 45,4 (normada 6 mg/ml), Revmafaktor esa 39,5 (normada 20 ul/ml); Autoimmun tekshiruvda Antinuklear antitela 29,6 (normada 0-25 ME/ml); Antineytrofil antitela 10,45 (normada 1 dan oshsa musbat hisoblanadi). Bu ko'rsatkichlar o'rtacha olindi va nazoratdagi bemorlarga qaraganda birmuncha yuqori chiqdi. Asosiy guruh bemorlarning 30 foizida Vegener granulematozi klinikasi kuzatildi: bemorlarda burundan nafas olish qiyinligi yiringli qon ajralmalar kelishi, qon tupurish hamda yiringli qon aralash balg'am kelishi, yarali stomatit, yiringli otit, bakterial konyuktivit, yarali nekrotik traxeobronxit hamda krupoz zotiljam og'ir kechishi natijasida o'tkir nafas yetishmovchiligi bilan asoratlanishlar kuzatildi. Buyraklarda esa tez rivojlanib zo'rayib boruvchi glomerulonefrit oqibatida o'tkir buyrak yetishmovchiligi kuzatildi. Laborator tahlilda S reaktiv oqsil 28,7 (N-6), revmofaktor 32,9 (N-20), ASLO-640,5 (N-200), ANA-18,7 (N 0-25), ANCA- 10,67 (>1 musbat), SARS COV-2 Ig M (-), Ig G(+). Qolgan 10 foiz bemorlarda Tugunchali poliartrit klinikasi kuzatildi: asosan yirik bo'g'implarda diametri 10 mmdan oshadigan eritematoz, vezikulyar toshmalar, papulalar, gemorragiya va nekroz o'choqlari poliartrit ko'rinishida, tomirlar paypaslanganda 2-3 sm keladigan teri osti tugunchalar aniqlandi. Buyraklarda arterial gipertenziya nefropatiyalar, gektik temperature (>42°C), yurakda perikardit, kardiomiopatiyalar, miokard infarkti; bronxial astma belgilari, nerv tizimida polinevrit, paresteziya hamda epidural gematomalar kuzatildi. Laboratoriyada Hbs antigen (+), S reaktiv oqsil 19,7 (N-6), revmofaktor 32,4 (N-20), ASLO-580,5 (N-200), ANA-16,7 (N 0-25), ANCA- 10,56 (>1 musbat), SARS COV-2 Ig M (-), Ig G(+) ekanligi aniqlandi.

**Xulosa:** Olingan ma'lumotlarga ko'ra asosiy guruh bemorlarda Tizimli vaskulitlar klinik variantlarini klinik kechishi nazorat guruhi bemorlarga nisbatan o'tkir hamda ko'plab a'zo tizimlar zararlanishi bilan og'ir asoratli kechishi va laborator tahlilda ham birmuncha yuqori ko'rsatkichlar aniqlandi. Ya'ni Koronavirus infeksiyasidan keyin kelib chiqqan Tizimli vaskulitlar poliorgan zararlanishi bilan o'tkir kechib og'ir asoratlar bilan namoyon bo'lishi qayd etildi. Koronavirus infeksiyasi Tizimli vaskulitlar rivojlanishiga uni og'ir asoratlar bilan kechishiga trigger bo'lib xizmat qilishi isbotlandi.